

## ILK TEMIR DAVRI SHAHARLARNING VUJUDAGA KELISHI

*Abdullayev Zohidjon*

*Namangan davlat universiteti*

*Tarix yo'nalishi 3-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Tarix kitoblarimizda kelishicha Ilk temir davrida insoniyatning ibtidoiy jamoa va ilk ishlab chiqarish. xo'jaligi shakllanayotgan tarixidagi davrl hissoqlangan ushbu maqolada Ilk temir davri shaharlarning vujudaga kelishi haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** tarixiy madaniy o'lkalar, bolta, ketmon, kurak, g'alvirak temir bo'lagi, ibtidoiy jamoa, temir, temir tishli omoch, xom g'isht va paxsa.

Ma'lumki, fanda tosh va jez deb yuritilgan davrlardan so'ng insoniyat hayotida sodir bo'lgan tarixiy bosqich. Bu davr xo'jalikda ohangarlik (temir metallurgiyasi) yuzaga kelishi, tarkalishi va temir qurollar ishlatilishi bilan belgilanadi. «Temir davri» atamasi, garchi antik dunyoda tosh, jez asri tushunchalari qatorida yuzaga kelgan bo'lsada, fanga 19-a. ning o'rtalarida daniyalik arxeolog K. Yu. Tomsen tomonidan kiritilgan. Rudadan temirni ajratib olish usuli dastlab Misr va Mesopotamiyada (mil. av. 3ming yillikning 1yarmida) kashf etilgan. Keyinroq (mil. av. 2ming yillikning oxirida) bu usulni yunonlar bilib olishgan. Mil. av. 11-a. dan boshlab Falastin, Suriya, Kichik Osiyo, Zakavkazye, Hindiston va Xitoyda xo'jalik va harbiy qurolaslahalar yasashda temirdan keng miqyosda foydalanilgan, so'ngra temir asboblar yasash Eron va O'rta Osiyoda ham keng tarqala boshlagan. Temir (meteoritdan tashkari) Amerika, Avstraliya, Tinch okeanning aksariyat orollarida va Shim. mintaqalarda 16—17-a. larda ma'lum bo'lgan. Temir tabiatda yombi sifatida uchramaydi. U ruda zarrachalari to'plamini yumshoq xamirsimon holatga kiritish usuli bilan olingan. Bu usul temir rudasini 900 — 1350° atrofida qizdirib maxsus ko'ralarda boskrndan konussimon nay orqali havoni puflab kuchaytirish yo'li bilan bajarilgan. Ko'ra tubida kritsa (1 — 5 kg lik g'alvirak temir bo'lagi) hosil bo'lib,

uni olovda qizdirib, suvga botirib, sandonda bolga bilan urib toblangan. Natijada temir rudasi zichlanib, toshqollardan tozalangan. Biroq olingan sof temir juda yumshoq, undan yasalgan mehnat qurollarining sifati past bo'lgan. Mil. av. 9—7-a. larga kelib metallga termik usul bilan ishlov berish kashf etilib, uni po'latga aylantirilishi yangi material — temirning keng tarqalishiga sabab bo'ladi.

Temir davrida ishlab chiqarishda buyuk texnika o'zgarishlari yuz berdi. Temir rudasining mis va kalayga nisbatan tabiatda serobligi, mustahkam sifati uning ishlab chiqarishda va harbiy sohada tez va keng tarqalishiga olib keldi. Ayniqsa, qishloq xo'jaligi. da gemir qurollardan foydalanishga o'tish katta voqea bo'ldi. Chunki deg'qonchilik maydonlarini kengaytirishda temir asbob va kurollar (bolta, ketmon, kurak), ayniqsa, temir tishli omoch kabi mustahkam moslamalar paydo bo'ldi. Temir davrida dehqonchilikdan hunarmandchilik ajralib chiqib, alohida ishlab chiqarish. xo'jaligiga aylandi.

Temirning keng tarqalishi bilan ishlab chiqarish xo'jaliklarining rivojlanib borishi shubhasiz, ijtimoiy hayotni ham tubdan o'zgarishiga olib keddi. Yirik qishloqlar hunarmandchilik va o'zaro ayirboshlash savdo markazita aylanib, shaharlar qad ko'tardi. Ular xom g'isht va paxsadan bino qilingan baland va qalin devorlar bilan o'rab olindi. Shunday qilib, temir va po'lat buyumlardan keng ko'lamda foydalanish O'rta Osiyo shag'ar va qishloqlari taraqqiyotiga ham samarali ta'sir etdi.

Ilk temir davriga kelib, yani eramizgacha bo'lgan X-VII asrlarda hududiy davlatlarning shakllanish jarayoni kechgan. Bu davrda shaharlar hududiy davlatlarning markazi sifatida faoliyat etishi kuzatiladi. Qadimgi Baqtriyaning shimoliy qismi bo'lgan Surxondaryo viloyatida ilk temir davrida uchta hududiy davlatning shakllanganligini kuzatishimiz mumkin. Bular Sherobod, Boysun, Surxon dehqonchilik o'lkalarida joylashgan «nom» tipidagi hududiy davlatlar bo'lib, siyosiy markazlari Jondavlattepa, Hayitobodtepa va Qiziltepa shaharlari bo'lgan.

Xuddi shunday «nom» tipidagi hududiy davlatlarning Qadimgi So'g'd va Qadimgi Farg'ona vodiysida ham tarkib topganligi kuzatilmoqda. Ularning markazlari Daratepa (Kitob), Ko'ktepa (Chelak), Afrosiyob (Samarqand), Farg'ona vodiysidagi Dalvarzin kabi shahar tipidagi yodgorliklar bo'lgan. Ilk temir davrida shakllangan hududiy davlatlar bir yoki bir nechta daryo o'zanlari hududlarini birlashtirib, markaziy shahri va shu markaz atrofida jamlangan qishloq va qo'rg'onlar majmuasidan iborat bo'lgan. Shaharlarining umumiy maydoni 8 gektardan 25 gektargacha boradi. Ular ikki qism, ark va shahristondan iborat bo'lgan. Arxeologik kuzatuvlarga qaraganda shu davr shaharlari tashqi ko'rinishiga ko'ra bir-biriga juda o'xshash bo'lgan. Ark va shahriston qalin mudofaa devorlari bilan o'rab olingan bo'lib, devorlarning qalinligi 5-6 metrni tashkil etadi. Devor ustida jangchilar yuradigan maxsus yo'lak bo'lgan, shahar devorlariga o'q otish uchun harbiy minora – mudofaa burji qurilgan. Mudofaa devori va burjlarning har ikki metrda shinaklar o'rnatilgan. Ilk temir davri shaharlarining xarakterli tomonlaridan biri shahar atrofida handaklar qazilgan, harbiy holat vaqtida handaklar suvga to'ldirilgan va shahar mudofaasi yanada mustahkamlangan.

Arkda shahar hokimining saroyi joylashgan bo'lib, eng baland va hashamatli qilib qurilgan. Shahristonda ibodatxonalardan tashqari, hunarmand va savdogarlarning uylari, savdo rastalari, harbiy kazarmalar joylashgan bo'lgan. Shahristonda tosh to'shalgan yo'laklar bo'lib, yo'laklar bir arava sig'adigan kenglikda bo'lgan.

Dehqonlar shahar atrofidagi qishloq va qo'rg'onlarda yashagan. Ilk temir davriga oid qishloq Surxondaryo viloyati Sho'rchi tumanidagi Qizilcha qo'rg'oni misolida o'rganilgan. U to'g'ri to'rtburchak shaklli bo'lib, devorlari paxsa va xom g'ishtdan terilgan, xonalarning poli va devorlari loy shuvoq bilan shuvalgan. Uyning old tomoni keng hovlidan iboratligi kuzatilgan, bu yerdan topilgan topilmalar qishloq hayot tarzini to'liq xarakterlaydi. Omoch, o'roq singari

topilmalar, qishloq aholisining dehqonchilik bilan shug'ullanganligini ko'rsatadi (Sagdullayev, 1887).

Er.av. VII asrga kelib hududiy davlatlar asosida Vatanimiz janubida Qadimgi Baqtriya, VI asrda esa quyi Amudaryo va Orol bo'ylarida Qadimgi Xorazm shohliklari, O'rta Osiyo va Qozog'istonning tog'lari, dashtlari, cho'llarida ko'chmanchi Sak qabilalarining konfederatsiyasi bo'lganligi kuzatiladi. Davlatlarning hududiy kengayishi natijasida, shunga monand shaharlar ham rivojlanib borgan va joylashgan geografik o'rni va egallagan siyosiy mavqeiga qarab katta va kichik shaharlar toifasiga bo'linib borgan. Markazlashgan davlatlar hududi juda keng bo'lib, bir va bir necha keng o'lkalarni o'z tarkibiga olgan. Bu davrga kelib, shaharlar egallagan siyosiy mavqeiga qarab toifalarga ajrala boshlaydi. Qadimgi Baqtriya shohligi hududlarida Bolo Hisor, Oltindilyor (Shimoliy Afg'oniston), Qiziltepa, Jondavlattepa, Haitobodtepa (Surxondaryo), Baytudasht (Janubiy Tojikiston) kabi shahar tipidagi arxeologik yodgorliklarning mavjudligi aniqlangan. Bolo Hisor o'rnida qadimgi Baqtra shahri joylashga, bu shahar Gerodot va Kteseylarning ta'kidlashicha, Baqtriyaning markazi bo'lgan.

O'zbekistonda Temir davriga oid yodgorliklarni sanalashtirish va dastlabki turkumlarga ajratilishiga doyr tadqiqotlar S. P. Tolstov, A. I. Terenojkin va Ya. G'ulomovlar tomonidan amalga oshirilgan. O'zbekiston hududida Temir davri yodgorliklari mil. av. 8—6-a. larga mansub. Ular Xorazm, Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand, Buxoro, Toshkent viloyatlarida va Farg'ona vodiysida o'rganilgan; Ko'zaliqir, Qal'aliqir va Dingilja singari qad. qal'a va qishloq, shahar xarobalari, Tagisken va Uygarak qabristonqo'rg'onlari, Bo'kantov qoyatosh suratlari tekshirilgan. Temir davrida qad. Xorazm hududlarida dastlabki yirik sug'orish inshootlari vujudga kelgan.

1960—70y. larda Surxondaryoda Kuchuktepa, Jondavlat va Qiziltepaning quyi qatlamlari, Pachmoqtepa, Qizilchatepa yodgorliklari o'rganildi. L. I. Albaum Kuchuktepadan mil. av. 6 — 4-a. larga oid uyjoy qoldiklari, kulolchilik, temirdan

yasalgan uyro'zgor va deqqonchilik buyumlarini topgan. 60y.

larda Buxoro viloyatida Xazora yodgorligi va Sarmichsoy petrogliflari tekshirildi. Qashqadaryoda Temir davriga oid Chimqo'rg'on yodgorligi (1972) o'rganildi. 1973-y. da Chordara istehkomi (Konimex tumani) va Romushtepa (Jondor tumani) tekshirildi.

Temir davriga mansub arxeologik yodgorliklar Toshkent viloyatida Burganliktepa, Qovunchitepa, Tuyabo'g'iztepa va Burchmulla xazinasi, Farg'ona vodiysida esa, Eylaton yodgorligi va Oqtosh qabristoni asosida o'rganilgan. 80—90 yillardan Ko'ktepa (Samarqand viloyati), Yerqo'rg'on va Uzunqir (Qashqadaryo viloyati) kabi mil. av. 7—6-a. larga oid nodir obidalarda arxeologik qazishlar o'tkazildi. Bu yodgorliklarning tadqiqotlarida R. Sulaymonov, M. Filanovich, A. Sa'dullayev, M. Isamiddinov, Sh. Odilov, B. Matboboyev va b. ning hissasi katta bo'ldi. Temir davriga oid yodgorliklarning tadqiqot natijalari, shubhasiz, O'zbekiston tarixining eng muhim masalalaridan hisoblanadi. Shaharsozlik madaniyatining shakllanishi shaharlar va mamlakatlararo savdosotiq munosabatlarining rivoji hamda ilk davlatchilik tizimlarining shakllanishi va rivoji tarixini o'rganishda samarali natijalar bermoqda. Chunki, Temir davrida mamlakatimiz hududida Xorazm, Baqtriya, Sug'd, Choch va Farg'ona kabi qad. tarixiy madaniy o'lkalar shakllanib, Katta Xorazm, YunonBaqtriya (Baxtar) podsholigi, Sug'd mahalliy hokimlar konfederatsiyasi, Qang' davlati va Farg'ona afshinlari kabi hokimiyatlar tashkil topgan edi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Uralov A.S. , Xojixonov M. Ulugbek yaratgan ma'naviyat. T., 1994.
2. Mankovskaya Yu.L. Tipologicheskiye osnovy zodchestva Sredney Azii (IX - nachalo XX veka). T., 1980
3. Pugachenkova G.A. Zodchestvo Sentralnoy Azii XV v. T., 1976.
4. manba:arxeologiya.uz